



KAMBAG'ALLIKNI KAMAYTIRISHDA XALQARO AMALIYOTNI QO'LLASH IMKONIYATLARI

Toyirov Shohboz

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti

ORCID: 0009-0005-4087-0523

p.bunyodkor122@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqola kambag'allik muammosining global va mintaqaviy tahliliga hamda uni bartaraf etish bo'yicha xorijiy mamlakatlar tajribasi va O'zbekiston strategiyalariga bag'ishlangan. Maqolada Oksford Kambag'allikka qarshi kurashish va inson taraqqiyotini rivojlantirish tashabbusi (OPHI)ning "Global ko'p o'lchovli kambag'allik indeksi 2024" hisoboti tahlil qilingan bo'lib, unda dunyo bo'ylab 1,1 mlrd. aholi keskin kambag'allikda yashayotgani, ularning katta qismi qishloq joylariga va Sahroyi Kabir hamda Janubiy Osiyo mintaqalariga to'g'ri kelishi ko'rsatilgan. Shuningdek, kambag'allikni kamaytirishning samarali strategiyalari (Janubiy Koreya, Xitoy, Braziliya, Norvegiya) ko'rib chiqilgan va bunda inson kapitaliga sarmoya kiritish hamda ijtimoiy dasturlarni iqtisodiy o'sish bilan uyg'unlashtirish muhimligi ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: kambag'allikni qisqartirish, ko'p o'lchovli kambag'allik (MPI), ijtimoiy himoya, xalqaro kambag'allik ko'rsatkichi, iqtisodiy o'sish, inson kapitali.

ВОЗМОЖНОСТИ ПРИМЕНЕНИЯ МЕЖДУНАРОДНОЙ ПРАКТИКИ В СФЕРЕ СОКРАЩЕНИЯ БЕДНОСТИ

Тойиров Шохбоз

Университет экономики и педагогики

Аннотация. Данная статья посвящена глобальному и региональному анализу проблемы бедности, а также опыту зарубежных стран и стратегиям Узбекистана по ее устранению. В статье анализируется отчет "Глобальный многомерный индекс бедности 2024" Оксфордской инициативы по борьбе с бедностью и развитию человеческого потенциала (ОПН), который показывает, что 1,1 миллиарда человек по всему миру живут в крайней нищете, причем большая часть из них приходится на сельскую местность и регионы Сахары и Южной Азии. Также были рассмотрены эффективные стратегии сокращения бедности (Южная Корея, Китай, Бразилия, Норвегия) и подчеркнута важность инвестирования в человеческий капитал и гармонизации социальных программ с экономическим ростом.

Ключевые слова: сокращение бедности, многомерная бедность (MPI), социальная защита, международный индекс бедности, экономический рост, человеческий капитал.

OPPORTUNITIES FOR APPLYING INTERNATIONAL PRACTICES IN REDUCING POVERTY

Toyirov Shokhboz

University of Economics and Pedagogy

Abstract. This article is devoted to a global and regional analysis of the problem of poverty, as well as the experience of foreign countries and Uzbekistan's strategies for its elimination. The article analyzes the Oxford Poverty Alleviation and Human Development Initiative (OPHI) report "Global Multidimensional Poverty Index 2024," which indicates that 1.1 billion people worldwide live in extreme poverty, with the majority in rural areas and the Sahara and South Asian regions. Effective poverty reduction strategies (South Korea, China, Brazil, Norway) were also reviewed, emphasizing the importance of investing in human capital and harmonizing social programs with economic growth.

Keywords: poverty reduction, multidimensional poverty (MPI), social protection, international poverty index, economic growth, human capital.

Kirish.

Kambag'allik muammosi dunyo miqyosida hamon jiddiy iqtisodiy muammolardan biri bo'lib turibdi. Bu masala, ayniqsa, hozirgi global noaniqliklar va tebranishlar sharoitida taraqqiyot yo'lidagi xatarli to'siqlardan biridir. Mazkur sabablar tufayli, Oksford kambag'allikka qarshi kurashish va inson kapitalini rivojlantirish tashabbusi (OPHI) ilmiy markazining "Global Ko'p o'lchovli kambag'allik indeksi 2024: ziddiyatlar sharoitida kambag'allik" (2024) hisoboti e'lon qilindi. Hisobotda dunyo mamlakatlarining ko'p o'lchovli kambag'allik bo'yicha darajalari, mintaqalardagi kambag'allikni keltirib chiqarayotgan asosiy muammolar va ularni yechish yo'llari tahlil qilingan.

E'lon qilingan hisobotga ko'ra, qamrab olingan mamlakatlardagi 6,3 mlrd. nafardan ko'proq aholining 1,1 mlrd nafar qismi ko'p o'lchovli kambag'allik standartlariga ko'ra keskin kambag'allikda yashaydi va ularning yarmi, ya'ni 584 mln. nafari bolalar hisoblanadi. Butun dunyo bo'ylab:

- 18 yoshga to'lmaganlarning 27,9 foizi, kattalarning 13,5 foizi kambag'al deb topilgan;
- ko'p o'lchovli kambag'al aholining katta qismi qishloqlarda istiqomat qilishadi, ya'ni hisobotda kambag'al deb topilganlarning 83,7 foizi qishloq joylarda yashashini bildirgan. Umuman olganda, qishloqlarda yashovchilarning 28 foizi, shahar aholisining 6 foizi kambag'aldir;
- ko'p o'lchovli kambag'al aholining 83,2 foizi Afrikaning Saxroyi Kabir hamda Janubiy Osiyo mintaqalaridan hisoblanadi. Xususan, Sahroyi Kabirda 553 mln nafar, Janubiy Osiyoda 402 mln nafar aholi ko'p o'lchovli kambag'aldir;
- kambag'allarning uchdan ikki qismi ya'ni 65,2 foizi yoki 749 mln nafari o'rta daromadli mamlakatlar hissasi to'g'ri kelgan.

Jahon banki tomonidan berilgan ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonda kuniga 2,15 dollardan kam daromad topadigan aholi ulushi 2,3 foiz, 3,65 dollardan kam daromad topadiganlar ulushi bo'lsa 5 foizni tashkil etgan.

Adabiyotlar sharhi.

Jahon bankining katta iqtisodchisi va Markaziy Osiyodagi kambag'allik va tenglik masalalari bo'yicha dastur boshqaruvchisi Zeyts (2020) o'zining ma'ruzasida "Aksariyat mamlakatlar milliy darajada kambag'allik bo'yicha o'z ta'riflaridan foydalanadilar. Hukumatlar bunday qilishidan sabab, bu atamaning ma'nosi turli jamiyatlarda juda katta farq qiladi. Ammo bu turli mamlakatlarda moddiy sharoitlar bir xil emasligi bilan ham bog'liq. Odamlarning asosiy ehtiyojlarini qondirish bo'yicha xarajatlar ko'plab omillarga bog'liq. Masalan, ayrim

mamlakatlarda bu aholining ovqatlanish tartibi, ijtimoiy meyorlar va iqtisodiy tuzilishining o'ziga xos xususiyatlariga bog'liq. Muayyan sharoitda foydalanish uchun ishlab chiqilgan, bir mamlakatda kambag'allik darajasini hisoblashning milliy usullari kamdan-kam hollarda boshqa mamlakatlardagi vaziyatlarni to'g'ridan-to'g'ri taqqoslash uchun qo'llaniladi.

Ammo ba'zida turli mamlakatlardagi kambag'allik darajasini taqqoslash foydali. Masalan, dunyoning boshqa qismlarida kambag'allikni qisqartirish bo'yicha qanday davlat siyosati muvaffaqiyatli qo'llanilayotganligini tahlil qilish uchun. Bunday taqqoslashni o'tkazish uchun 1991 yilda Jahon banki dunyoning eng qashshoq mamlakatlaridagi o'rtacha kambag'allik darajasi sifatida aniqlanadigan xalqaro kambag'allik ko'rsatkichini ishlab chiqdi."

Aholi daromadi tengsizligi va kambag'allik bilan iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlik bo'yicha Deaton (2013), Acemoglu va Robinson (2012), Ditont kabi ko'plab mumtoz neoklassik iqtisodchilar va Nobel mukofoti Lauretlari nazariy va empirik tadqiqotlar o'tkazgan bo'lib, ularda yalpi ichki iste'mol, texnologik rivojlanish, mehnat unumdorligi, aholi salomatligi, soliq bazasi va boshqa shu kabi omillar tahlili asosida, kambag'allik kam bo'lgan jamiyatlarda, iqtisodiy o'sish sur'atlari yuqoriroq bo'lishini nazariy isbotlashgan.

Kambag'allik ijtimoiy-iqtisodiy hodisa sifatida iqtisodiy rivojlanish jarayonida moddiy va nomoddiy imtiyozlardan foydalanish va daromadlarni taqsimlashdagi tengsizlikning oqibati sifatida izohlanadi (Mustafaqulov va boshq., 2020).

Tadqiqot metodologiyasi.


Tadqiqotda ilmiy abstraksiyalash, mantiqiy fikrlash, qiyosiy tahlil, monografik tadqiqot, ma'lumotlarni guruhlash, taqqoslash kabi usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Bugungi kunda ijtimoiy sohada amalga oshirilayotgan keng islohotlar natijasida O'zbekistonning barcha viloyatlarida kambag'allik darajasi pasaymoqda, bu ijtimoiy va iqtisodiy islohotlarning samarali amalga oshirilayotganini ko'rsatadi. Shaharlar va qishloqlar o'rtasidagi farqlarni bartaraf etish, ijtimoiy dasturlarni yanada kuchaytirish va ish o'rinlarini yaratish orqali kambag'allikni qisqartirishda katta yutuqlarga erishish mumkin. Biroq, hududlar o'rtasidagi kambag'allik darajasidagi farqlarni kamaytirish uchun qo'shimcha chora-tadbirlar talab etiladi. Ayniqsa, past darajadagi kambag'allikni bartaraf etish va iqtisodiy o'sishning barqarorligini ta'minlash uchun har bir viloyatda alohida iqtisodiy va ijtimoiy yordam dasturlari kerak bo'ladi. Buning uchun esa albatta taraqqiy etgan mamlakatlarning samarali tajribalari kerak bo'ladi.


Dunyo bo'yicha kambag'allikni qisqartirish so'nggi yillarda iqtisodiy barqarorlik, ijtimoiy tenglik va barqaror rivojlanishning asosiy maqsadlaridan biriga aylangan. Jahonning rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarida kambag'allikni qisqartirish uchun turli strategiyalar va islohotlar amalga oshirilmoqda. Masalan, Skandinaviya davlatlari, Janubiy Koreya va Singapur kabi mamlakatlar o'z iqtisodiyotlarini mustahkamlash va kambag'allikni kamaytirish uchun ta'lim tizimini yaxshilash, tibbiy xizmatlarga kirishni osonlashtirish, mehnat bozorini diversifikatsiya qilish va ijtimoiy himoyani kuchaytirishga katta e'tibor qaratmoqda. Bunday yondashuvlar, kambag'allikni qisqartirishda yuqori samaradorlikka erishishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahon tajribasida kambag'allikni qisqartirish ko'p hollarda mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy va ijtimoiy farqlarni kamaytirishga yordam beradi. Shuningdek, kambag'allikni qisqartirish orqali odamlarning salomatligi, ta'lim darajasi va umuman yashash sharoitlari yaxshilanadi, bu esa jamiyatdagi umumiy farovonlikni oshiradi. Shu bilan birga, kambag'allikni qisqartirishning muhimligi, davlatlarning uzoq muddatli iqtisodiy o'sishiga xizmat qilishi bilan ham bog'liqdir. O'zbekiston ham jahon tajribasiga tayangan holda kambag'allikni kamaytirish bo'yicha o'zining strategiyalarini ishlab chiqishda davom etmoqda.



1-rasm. O'zbekiston Respublikasi kambag'allik darajasi (2021-2024-yillar)

Dunyo miqyosida kambag'allikni kamaytirish bo'yicha quyidagi asosiy strategiyalar qo'llaniladi:



2-rasm. Xalqaro amaliyotda kambag'allikni kamaytirish bo'yicha qo'llaniladigan strategiyalar

Janubiy Koreya 1960-yillarda kambag'allik darajasi yuqori bo'lgan davlatlardan biri bo'lib, qisqa vaqt ichida iqtisodiy mo'jiza yaratdi. Bu natijaga quyidagi omillar asosida erishildi:

- sifatli ta'lim tizimi – davlat barcha aholiga bepul va zamonaviy ta'lim olish imkonini yaratdi.
- kasb-hunarga tayyorlash dasturlari – ishchi kuchining malakasini oshirish orqali sanoat salohiyati kuchaytirildi.
- raqobatbardosh sanoat siyosati – yuqori texnologiyalar va eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarish rivojlantirildi.

– ijtimoiy himoya tizimi – sogʻliqni saqlash, pensiya va ishsizlik sugʻurtasi kabi xizmatlar joriy etildi.

Xitoy 1980-yildan boshlab bosqichma-bosqich amalga oshirilgan islohotlar orqali 800 milliondan ortiq odamni kambagʻallikdan chiqardi. Asosiy chora-tadbirlar:

– qishloq xoʻjaligini erkinlashtirish – fermerlarga mustaqil ishlab chiqarish huquqi berildi;

– hududiy taraqqiyot dasturlari – kambagʻallik yuqori boʻlgan viloyatlarga davlat investitsiyasi jalb qilindi;

– bandlik va tadbirkorlikni qoʻllab-quvvatlash – kichik biznes uchun imtiyozli kreditlar va soliq yengilliklari berildi;

– koʻchmas mulk va uy-joy siyosati – aholini arzon uy-joy bilan taʼminlash siyosati yuritildi.

Xitoy tajribasi koʻrsatadiki, iqtisodiy oʻsishni ijtimoiy dasturlar bilan uygʻunlashtirish orqali keng qamrovli kambagʻallikka qarshi kurashish mumkin.

Braziliyada 2003-yilda ishga tushirilgan “Bolsa Familia” dasturi kambagʻallikni qisqartirishda muhim rol oʻynadi. Dastur mohiyati:

– shartli naqd pul koʻmagi – past daromadli oilalarga har oy mablagʻ beriladi, biroq bolalar maktabga borishi va tibbiy koʻrikdan oʻtishi shart etib belgilanadi.

– ijtimoiy audit va monitoring – yordamlar adolatli taqsimlanishi ustidan doimiy nazorat yuritiladi.

– ayollarga yoʻnaltirilgan yordam – naqd pullar asosan onalar nomiga beriladi, bu orqali oilaning barqarorligi taʼminlanadi.

Natijada, 10 yil ichida Braziliyada 30 millionga yaqin inson kambagʻallik chegarasidan chiqdi.

Norvegiya, Shvetsiya kabi davlatlarda universal ijtimoiy himoya va progressiv soliq tizimi kambagʻallikni past darajada ushlab turadi.

Turkiyada kambagʻallikni kamaytirish boʻyicha “Sosyal Yardımlaşma ve Dayanışma Vakfı” orqali oila asosidagi ijtimoiy yordam mexanizmlari joriy qilingan.

Hindistonda “MNREGA” dasturi orqali har bir qishloq aholisi uchun yiliga 100 kunlik ish kafolatlanadi, bu ishsizlik darajasini kamaytirgan.

Ushbu tajriba shuni koʻrsatadiki, inson kapitaliga sarmoya kiritish kambagʻallikni barqaror kamaytirishga xizmat qiladi.

Oʻzbekiston Respublikasida kambagʻallik masalasi soʻnggi yillarda davlat siyosatining ustuvor yoʻnalishlaridan biriga aylandi. Rasmiy statistikaga koʻra:

2020-yilda kambagʻallik darajasi 17% atrofida edi, 2022–2024-yillarda bu koʻrsatkichni kamaytirish maqsadida keng koʻlamli dasturlar joriy etildi.

2024-yil oxiriga kelib kambagʻallik darajasi 8.9% qayd etildi.

Bu natijalarga quyidagi chora-tadbirlar asosida erishildi:

Ijtimoiy yordam tizimining raqamlashtirilishi (Yagona ijtimoiy reyestr orqali).

– “Temir daftar”, “Ayollar daftari” va “Yoshlar daftari” tizimlarining yoʻlga qoʻyilishi.

– Oilaviy tadbirkorlik dasturlari doirasida aholiga imtiyozli kreditlar ajratilishi.

– Kasb-hunar markazlari orqali ishsizlar va yoshlar malakali ishchi kuchiga aylantirilishi.

Oʻzbekistonda hozirgi vaqtda qoʻllanilayotgan kambagʻallikni qisqartirish strategiyalar quyidagilar:

Mahallabay ishlash tizimi – har bir hududdagi ijtimoiy ahvol oʻrganilib, kambagʻallik sabablariga qarshi manzilli yondashuv qoʻllanilmoqda.

Ijtimoiy yordam va subsidiyalar – kam taʼminlangan oilalarga nafaqalar, kommunal toʻlovlar uchun subsidiya, oziq-ovqat yordami berilmoqda.

Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash – “Har bir oila – tadbirkor”, “Yoshlar – kelajagimiz” kabi dasturlar orqali kichik biznes rivojlantirilmoqda.

Kasb-hunar ta'limini kuchaytirish – mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan sohalarda qisqa muddatli o'quv kurslar tashkil etilmoqda.

Mehnat migratsiyasi – xorijda vaqtincha ishlashga chiqayotgan fuqarolar soni ortmoqda, davlat bu jarayonni tartibga solmoqda.

1-jadval

Markaziy Osiyo davlatlarining kambag'allik darajasi tahlili

Davlat	Kambag'allik darajasi (2019-2023 yillar)	Kunlik daromadi 1,9 AQSh dollaridan kam bo'lgan aholi	Yillik o'sish sur'ati	Asosiy kambag'allikka ta'sir etuvchi omillar
O'zbekiston	8,9% (2024)	8,9%	5,6%	Ta'lim va sog'liqni saqlash, qishloq xo'jaligi, bandlik tizimi
Qozog'iston	5,3% (2023)	5,3%	4,4%	Energetika sektori, sanoat va qishloq xo'jaligi rivojlanishi
Qirg'iziston	19,6% (2022)	19,6%	3,1%	Tadbirkorlik va bandlikning zaif rivojlanishi, ta'lim tizimining muammolari
Tojikiston	30,4% (2022)	30,4%	5,1%	Iqtisodiy inqiroz, qishloq xo'jaligiga qaramlik
Turkmaniston	9,8% (2023)	9,8%	4,7%	Energiya eksporti, iqtisodiy tizimdagi noaniqliklar

Qozog'istonning kambag'allik darajasi 2023 yilda 5,3% atrofida bo'lib, bu Markaziy Osiyodagi eng past ko'rsatkichlardan biridir. Bu davlatning energiya sektori, sanoat ishlab chiqarish va iqtisodiy diversifikatsiyaga qaratilgan siyosatlari o'z ta'sirini ko'rsatadi. Qozog'iston iqtisodiyoti asosan energetika va sanoat sektorlari asosida rivojlanadi. Bu sektorlar davlatning iqtisodiy o'sishiga katta hissa qo'shmoqda, ammo bu sohalar kambag'allikni kamaytirish uchun yetarli darajada ishlamayapti. Ta'lim, sog'liqni saqlash va bandlikni yaxshilash bo'yicha ijtimoiy islohotlar hozircha kambag'allikni yanada kamaytirish uchun yetarli emas. Qozog'istonning kambag'allikni kamaytirishdagi muvaffaqiyati energiya va sanoat sektorlari bilan bog'liq, ammo ijtimoiy sohalarda yangilanish va kengayish zarur. Qishloq joylaridagi kambag'allik yuqori bo'lib qolmoqda, ayniqsa, malakali ishchi kuchining yetishmasligi va iqtisodiy diversifikatsiyaning pastligi bu masalalarni yanada murakkablashtiradi.

Qirg'iziston 2022 yilda 19,6% kambag'allik darajasiga ega bo'lib, bu davlatda kambag'allik darajasi nisbatan yuqori. Ushbu ko'rsatkich mamlakatdagi iqtisodiy muammolar, bandlik tizimining yetarli darajada rivojlanmaganligi va qishloq xo'jaligiga qaramlikni aks ettiradi. Qirg'izistonning iqtisodiyoti asosan qishloq xo'jaligi va dastlabki sanoat sektorlari asosida rivojlanadi. Bandlik va tadbirkorlikni rivojlantirishdagi muammolar, malakasiz ishchi kuchining mavjudligi va iqtisodiy infratuzilmaning zaifligi kambag'allikni kamaytirishning oldidagi eng katta to'siqlardir. Qirg'izistonda kambag'allikni kamaytirish uchun bandlikni oshirish, tadbirkorlikni rivojlantirish va qishloq xo'jaligi sohasini modernizatsiya qilish zarur. Mamlakatning iqtisodiy o'sish sur'ati past, bu esa kambag'allikni kamaytirishda sekin o'zgarishlarni ko'rsatadi.

Tojikistonda kambag'allik darajasi 2022 yilda 30,4% ni tashkil etdi, bu Markaziy Osiyodagi eng yuqori kambag'allik ko'rsatkichi hisoblanadi. Bu davlatning kambag'allik

darajasi qishloq xo'jaligi va iqtisodiy inqirozga qaramligini ko'rsatadi. Tojikistonning iqtisodiyoti asosan qishloq xo'jaligiga qaram bo'lib, bu sohaning zaifligi va resurslarning noto'g'ri taqsimlanishi kambag'allikni kamaytirishga to'sqinlik qiladi. Iqtisodiy inqirozlar, energiya ta'minotidagi muammolar va investitsiyalarning yetishmasligi kambag'allikni yanada chuqurlashtiradi. Tojikistonda kambag'allikni kamaytirish uchun qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish, yangi ish o'rinlari yaratish va iqtisodiy diversifikatsiyani rivojlantirish zarur. Yordamchi infratuzilmaning rivojlanishi va chet el investitsiyalarining jalb qilinishi kambag'allikni kamaytirishga yordam beradi.

Turkmanistonning kambag'allik darajasi 2023 yilda 9,8% ni tashkil etdi, bu o'rtacha darajaga teng. Energiya eksporti va mamlakatning iqtisodiy tizimining mustahkamligi kambag'allikni qisqartirishda yordam bermoqda. Turkmanistonning iqtisodiyoti asosan energiya resurslari (xususan, gaz va neft) eksportiga qaram. Ammo iqtisodiy tizimdagi noaniqliklar, ijtimoiy infratuzilmaning pastligi va iqtisodiy diversifikatsiyaning cheklanganligi kambag'allikni kamaytirish uchun to'siq bo'ladi. Turkmanistonning kambag'allikni kamaytirishdagi eng katta muammosi iqtisodiy tizimning past diversifikatsiyasi va ijtimoiy sohalarga ajratilayotgan mablag'larning kamligi hisoblanadi. Energiya resurslarining narxi o'zgarishi mamlakat iqtisodiyotiga ta'sir qiladi, bu esa kambag'allikni kamaytirishning barqarorligiga putur yetkazadi.

Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida kambag'allik darajasi sezilarli farq qiladi. O'zbekiston, Qozog'iston va Turkmaniston kabi mamlakatlar nisbatan past kambag'allik darajasiga ega bo'lsa, Qirg'iziston va Tojikiston kabi davlatlar kambag'allik darajasi yuqori bo'lgan davlatlar hisoblanadi.

Xulosa va takliflar.

Xorijiy tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, muvaffaqiyatli natijalarga erishgan mamlakatlar inson kapitaliga sarmoya kiritish, shartli ijtimoiy yordam, qishloq infratuzilmasini yaxshilash, bandlik dasturlarini kengaytirish va raqamlashtirish kabi yo'llarni tanlagan.

Biz tadqiqotimiz natijasida quyidagi xulosaga keldik, davlat tomonidan mahallabay ishlash, "daftarlar" tizimi, kasb-hunar markazlari, oilaviy tadbirkorlik kreditlari orqali olib borilayotgan siyosat samaradorlik kasb etmoqda, biroq bu tizimni takomillashtirish zarur. O'zbekistonda kambag'allik darajasi pasaymoqda, biroq hali ham muammoli jihatlar mavjud: manzilli yordamdagi kamchiliklar, ishsizlik, moliyaviy savodxonlik pastligi, ba'zi hududlarda infratuzilma yetishmovchiligi kabi masalalarning mavjudligi bu borada ko'plab islohotlar amalga oshirilishi kerakligini ko'rsatadi.

Adabiyotlar/Lumepamypa/References:

Acemoglu, D. and Robinson, J.A. (2012). *Why Nations Fail: The Origins of Power, Prosperity and Poverty*. 1st ed. New York: Crown Publishing Group.

Deaton, A. (2013). *The Great Escape: Health, Wealth, and the Origins of Inequality*. Princeton, NJ: Princeton University Press.

Oxford Poverty and Human Development Initiative (OPHI) (2024). *Global Multidimensional Poverty Index 2024: Poverty amid conflict*. Oxford: University of Oxford.

Мустафақулов, А. ва бошқалар (2020). Ўзбекистонда камбағалликни аниқлаш ва қисқартириш давлат сиёсати даражасида. «Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар» илмий электрон журналы, №1, январ-февраль.